

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 19 267,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 4,2 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 112,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi 1,9 % ga yetdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
I. YAHM, jami	16 425,5	19 267,8	104,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	16 075,6	18 923,5	104,2
mahsulotlarga sof soliqlar	349,9	344,3	106,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	16 075,6	18 923,5	104,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 741,7	6 146,4	100,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	5 309,9	6 648,0	106,3
sanoat	4 125,6	5 324,4	107,0
qurilish	1 184,3	1 323,6	104,2
xizmatlar	5 024,0	6 129,1	106,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 558,1	1 920,8	110,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	490,7	636,8	118,1
boshqa xizmat tarmoqlari	2 975,2	3 571,5	102,7

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 20 934,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,3 % ga yuqoridir.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,9	98,2
mahsulotlarga sof soliqlar	2,1	1,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	35,7	32,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	33,1	35,1
sanoat	25,7	28,1
qurilish	7,4	7,0
xizmatlar	31,2	32,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9,7	10,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,1	3,4
boshqa xizmat tarmoqlari	18,4	18,8




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 32,5 % ni, sanoat tarmog'i 28,1 % ni, qurilish 7,0 % ni va xizmatlar sohasi 32,4 % ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,1 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrida – 2,2 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,7 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrida – 1,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,3 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrida – salbiy 1,3 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,0 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrida – 1,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrida – 0,3 f.p.) ga ko'paydi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 100,2 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 32,5 %), sanoatda – 107,0 % (28,1 %), qurilishda – 104,2 % (7,0 %), xizmatlar sohasida – 106,5 % ni (32,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,1 % (10,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,8 % (3,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,7 % dan (18,8 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 112,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 120,7 % va xizmatlarda – 114,6 % qayd etildi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 12 721,3 mlrd. so'mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 10 659,6 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 67,2 % ni (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida – 66,3 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

**Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va
YAHMdagi ulushi**
(jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2023- yil

10 659,6

66,3 %

2024- yil

12 721,3

67,2 %

